



AYBSIZLIK PREZUMPTSIYASI – JINOYAT PROTSESSINING FUNDAMENTAL PRINTSIPI

Ruzmyetov Odilbyek Satimovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18654466>

ARTICLE INFO

Received: 31st January 2026

Accepted: 5th February 2026

Published: 16th February 2026

KEYWORDS

aybsizlik prezumptsiyasi, jinoyat protsessi, O'zbekiston Respublikasi, konstitutsiyaviy islohotlar, isbotlash yuki, jimlik huquqi, revizion instansiya, himoya huquqi, adolatli sudlov, huquqiy davlat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jinoyat sudlov ishlarida aybsizlik prezumptsiyasi printsipining shakllanish tarixi, huquqiy tartibga solinishi hamda O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessidagi amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'nggi yillarda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, aybni tan olish asosida mahkum etishning taqiqlanishi o'rganiladi. Maqolada sudgacha bosqich va sud bosqichlarida prezumptsiyaning amal qilish xususiyatlari, isbotlash yukining taqsimlanishi, himoya huquqining ta'minlanishi kabi masalalar batafsil yoritilgan. Xalqaro standartlar bilan solishtirilgan holda O'zbekiston tajribasi baholanadi va amaliyotda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Aybsizlik prezumptsiyasi (lot. Praesumptio innocentiae) – zamonaviy huquqiy davlatchilik tizimining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u shaxs huquqlarini himoya qilish va asossiz ayblovlarning oldini olishga qaratilgan. Ushbu printsip har bir shaxsning aybsizligini, uning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanib, qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan tasdiqlanmaguncha, kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi o'n yillikda amalga oshirilgan keng ko'lamli huquqiy islohotlar aybsizlik prezumptsiyasi printsipini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Konstitutsiyaning 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri inson huquqlari kafolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Xususan, jimlik huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, faqat aybni tan olish asosida mahkum etishning taqiqlanishi kabi yangiliklar kiritildi.

Aybsizlik prezumptsiyasining hozirgi O'zbekiston hududida shakllanish tarixi chuqur ildizlarga ega. VII asrda shariatning "istixob" printsipi – ya'ni shaxsning dastlabki holati (aybsizligi) aniq dalillar paydo bo'lmaguncha o'zgarmas deb tan olinishi – jinoyat ishlarida qo'llanilgan. Bu printsip islom huquqshunosligi (fiqh)da keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra, har qanday shaxs tabiiy holda aybsiz hisoblanadi va unga nisbatan ayblov faqat ishonchli dalillar asosida qo'yilishi mumkin.

Rossiya imperiyasi davrida, 1864-yilda qabul qilingan Jinoyat sudlov ishlari ustavi sudning hukmi bo'lmasa shaxsni jazolashni bevosita taqiqlagan. Ushbu hujjat jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning muhim bosqichiga aylandi. Biroq, amaliyotda ushbu kafolat doimo ham to'liq ta'minlanmagan.

Sovet davrida aybsizlik prezumptsiyasi printsipi amalda e'tibordan chetda qolgan. Repressiv siyosat sharoitida gumon qilingan shaxslar ko'pincha o'z aybsizligini isbotlashga majbur bo'lishgan. 1930–1950-yillardagi ommaviy repressiyalar davrida bu printsip deyarli butunlay inkor etilgan. Faqat Ikkinchi jahon urushidan keyin, xalqaro huquqiy hujjatlarning ta'siri ostida, aybsizlik prezumptsiyasining asta-sekin tan olinishi boshlangan.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasi har bir shaxsning aybsizlik prezumptsiyasi huquqini e'lon qilgan. Keyinchalik, 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi ushbu printsipni yanada batafsil mustahkamlagan. Ushbu xalqaro hujjatlar SSSRning ham huquqiy tizimiga ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya aybsizlik prezumptsiyasini mamlakatning eng oliy huquqiy hujjatida mustahkamladi. Bu tarixiy voqea mazkur printsipning falsafiy-diniy qoidadan qat'iy huquqiy normaga aylanishining yakuniy bosqichi bo'ldi. Shunday qilib, aybsizlik prezumptsiyasi O'zbekiston hududida ming yillik tarixga ega bo'lib, u sharq huquqiy an'analari, Yevropa huquqi va xalqaro standartlar sintezining natijasi sifatida shakllanib kelgan.

O'zbekiston Respublikasida aybsizlik prezumptsiyasining huquqiy asoslarini bir necha darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Birinchi navbatda, Konstitutsiyaning 28-moddasi ushbu printsipning oliy huquqiy kafolati hisoblanadi. Mazkur modda har bir shaxsning aybsiz deb hisoblanish huquqini, uning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanib, qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan tasdiqlanmaguncha, kafolatlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 23-moddasida aybsizlik prezumptsiyasining protsessual mexanizmlarini batafsil belgilab berilgan. Ushbu moddaga ko'ra, printsipning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: isbotlash yukining faqat ayblov tomoniga yuklatilishi; gumon qilinuvchi va sudlanuvchining o'z aybsizligini isbotlashga majbur emasligini; barcha bartaraf etib bo'lmaydigan shubhalarning ayblanuvchi foydasiga talqin qilinishi.

Ta'kidlash joizki, 2023 yildagi konstitutsiyaviy islohotlar aybsizlik prezumptsiyasi kafolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Eng muhim yangiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Sukut saqlash huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi – shaxsning o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik huquqi bevosita Konstitutsiyada belgilandi. Aybni tan olishning yagona dalil sifatida tan olinmaslik normasi – faqat aybni tan olish asosida mahkum etish taqiqlandi. Himoya huquqining kengaytirilishi – advokat yordamidan foydalanish huquqi kuchaytirildiki, bu bevosita aybsizlik prezumptsiyasining samarali tatbiqiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar ham muhim huquqiy asos hisoblanadi. Xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Bolalar huquqlari to'g'risidagi konventsiya va boshqa xalqaro hujjatlar milliy qonunchilikda aybsizlik prezumptsiyasining xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solinishini ta'minlaydi.

Normativ-huquqiy bazaning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi aybsizlik prezumptsiyasini nafaqat umumiy printsip sifatida, balki aniq protsessual mexanizmlar orqali ham tartibga soladi. Bu esa mazkur printsipning nazariy deklaratsiyadan amaliy kafolatga aylanishini ta'minlaydi.

Aybsizlik prezumptsiyasi jinoyat ishining barcha bosqichlarida, jumladan, sudgacha bosqichda ham amal qiladi. Ushbu printsipning talablari shaxsga nisbatan gumon paydo bo'lgan yoki jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Gumon qilinuvchi va

ayblanuvchi tergov jarayonida, hatto qamoqda bo'lgan taqdirda ham, huquqiy jihatdan aybsiz shaxs sifatida qaraladi.

Sudga qadar ish yurituvchi bosqichda aybsizlik prezumptsiyasining protsessual tatbiqi bir qator muhim talablarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, tergovchi va tergov organi xodimi nafaqat ayblovchi, balki oqlovchi dalillarni ham ob'ektiv ravishda to'plashga majburdir. Bu talabning buzilishi dalillarning noqonuniy deb topilishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga himoya huquqi birinchi so'roqdan boshlab ta'minlanishi lozim. Uchinchidan, shaxsning jimlik huquqi to'liq hurmat qilinishi kerak – ya'ni shaxsning ko'rsatma berishdan bosh tortishi uning aybdorligiga dalil sifatida foydalanilishi mumkin emas.

Amaliyotda sudga qadar ish yurituvchi bosqichda aybsizlik prezumptsiyasining buzilishi hollari ham uchraydi. Eng ko'p uchraydigan muammolar qatorida – ba'zi hollarda gumon qilinuvchiga advokat o'z vaqtida taqdim etilmasligi, advokat yordamidan foydalanish huquqining kechiktirilishi, huquqlar to'g'risida yetarli darajada xabardor qilinmaslik, shaxsning uning protsessual huquqlari to'liq tushuntirilmasligi, aybni tan olishga noqonuniy usullar bilan majburlash hollarini keltirish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qamoqqa olish va so'roq jarayonlarining audio-video yozib olinishini majburiy qilish, advokat yordamidan foydalanish huquqining darhol ta'minlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, tergovchilar va surishtiruvchilar uchun aybsizlik prezumptsiyasi bo'yicha muntazam malaka oshirish o'quv kurslarini tashkil etish lozim.

Sud bosqichida aybsizlik prezumptsiyasi o'zining eng yuqori ifodasini topadi. Birinchi instansiya sudi hukm chiqarishda ayblov hukmi faqat taxminlarga asoslanmasligi kerakligini qat'iy ravishda hisobga olishi shart. Barcha dalillar maqbullik va ishonchlilik nuqtai nazaridan baholanadi, aybdorlikdagi bartaraf etib bo'lmaydigan har qanday shubha oqlashga olib keladi.

Sud jarayonida aybsizlik prezumptsiyasining amal qilishi quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo'ladi. Sud ayblov tomonining dalillarini tanqidiy baholash bilan birga, himoya tomonining dalil va argumentlarini ham teng darajada ko'rib chiqishi lozim. Sudya tergov xulosalari bilan bog'liq emas va mustaqil ravishda dalillarni baholash huquqiga ega. Agar ayblov tomoni o'z da'vosini yetarli darajada isbotlay olmasa, sud oqlov hukmi chiqarishga majbur. Ayblov hukmi faqat dalillar yig'indisi asosida, shubhasiz tarzda isbotlangan bo'lsagina chiqarilishi mumkin.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida aybsizlik prezumptsiyasi hukm qonuniy va yakuniy deb topilmaguncha o'z kuchini saqlab qoladi. Apellyatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudining dalillarni baholash to'g'riligini, protsessual qoidalarga rioya etilganligini va qonunning to'g'ri qo'llanilganligini tekshiradi. Kassatsiya instansiyasi esa huquqiy masalalar bo'yicha hukmning qonuniyligini nazorat qiladi.

Alohida ahamiyatga ega bo'lgan masala – 2024-yil 1-yanvardan joriy etilgan taftish instansiya institutining aybsizlik prezumptsiyasiga ta'siridir. Taftish instansiya sudi nafaqat shikoyat dalillarini, balki butun ishni to'liq hajmda tekshirib, barcha mahkum etilganlar yuzasidan sud qarorining adolatligini ta'minlaydi. Bunda mahkumning ahvolini yomonlashtirish yoki oqlov hukmini bekor qilish faqat qaror qonuniy kuchga kirganidan keyin bir yil ichida ruxsat etiladi. Bu cheklash aybsizlik prezumptsiyasining muhim kafolati bo'lib, u oqlangan shaxslarning huquqiy holatining barqarorligini ta'minlaydi.

Taftish instansiyaning joriy etilishi jinoyat sudlov tizimida bir qator ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi: sud xatolarini tuzatish imkoniyatlari kengaydi; mahkumlarning huquqlari yanada mustahkam himoya qilindi; oqlov hukmlarining barqarorligi ta'minlandi. Shu bilan birga, ushbu institut ayblov organlarini dalillar bazasining sifatini oshirishga undaydi, chunki isbotlanmagan aybdorlik – isbotlangan aybsizlikdir.

Aybsizlik prezumtsiyasi xalqaro huquqda universal tan olingan printsiplari hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14(2)-moddasi, shuningdek, Yevropa inson huquqlari konventsiyasining 6(2)-moddasi ushbu printsiplarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlar bilan qiyoslash bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ijobiy jihatdan, O'zbekiston qonunchiligi isbotlash yukining ayblov tomoniga yuklatilishi, shubhalarning ayblanuvchi foydasiga talqin qilinishi, jimlik huquqining kafolatlanishi kabi asosiy elementlar bo'yicha xalqaro standartlarga mos keladi. Bundan tashqari, islohotlar natijasida jimlik huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi va faqat aybni tan olish asosida mahkum etishning taqiqlanishi O'zbekistonning ilg'or xalqaro amaliyotga yaqinlashganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ba'zi sohalarida yanada takomillashtirish advokatura mustaqilligining kuchaytirilishi, sudga qadar ish yurituvchi bosqichida protsessual huquqlarning buzilishi hollarida samarali jazo choralarining tatbiq etilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilarining aybsizlik prezumtsiyasi bo'yicha huquqiy savodxonligining oshirilishi kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, aybsizlik prezumtsiyasining samarali tatbiqi uchun nafaqat tegishli qonunchilik bazasi, balki mustaqil sudlov tizimi, kuchli advokatura va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki ham zarur. O'zbekiston bu yo'nalishda izchil qadamlar qo'yimoqda, ammo oldida hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud.

Aybsizlik prezumtsiyasining amaliy tatbiqida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular qonunchilikni yanada takomillashtirishni talab qiladi. Birinchidan, advokat yordamidan foydalanish huquqining kechiktirilishi hollari hamon uchraydi. Ba'zi hollarda gumon qilinuvchiga birinchi so'roqdan oldin advokat taqdim etilmaydi, bu esa himoya huquqining buzilishiga olib keladi. Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarida jinoyat ishlari haqida xabar berishda aybsizlik prezumtsiyasi ko'pincha buziladi – shaxslar sud hukmi chiqarilmasidan oldin ommaviy ravishda "aybdor" sifatida ko'rsatiladi. Uchinchidan, tergovchilar va surishtiruvchilar tomonidan aybni tan oldirishga qaratilgan noqonuniy usullardan foydalanish hollari ham kuzatiladi. Bu masala ayniqsa jimlik huquqining samarali ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq. To'rtinchidan, dalillarning maqbulligi va ishonchliligi masalasida ham muammolar mavjud – ba'zan noqonuniy yo'llar bilan olingan dalillar sud tomonidan rad etilmasdan qabul qilinadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq. Birinchidan, sudga qadar ish yurituvchi bosqichida barcha so'roq va tergov harakatlarining audio-video yozib olinishini majburiy qilish zarur. Bu shaffoflikni oshiradi va noqonuniy usullardan foydalanishning oldini oladi. Ikkinchidan, advokatura mustaqilligini kuchaytirish va davlat advokatlari tizimini takomillashtirish lozim. Uchinchidan, OAV faoliyatida aybsizlik prezumtsiyasiga rioya etilishi bo'yicha huquqiy tartibga solishni kuchaytirish kerak. To'rtinchidan, tergovchilar, prokurorlar va sudyalalar uchun aybsizlik prezumtsiyasi bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, protsessual huquqlarning buzilishi hollarida samarali jazo choralarini tatbiq etish mexanizmlarini yaratish zarur. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda aybsizlik prezumtsiyasi haqidagi to'g'ri tushunchaning shakllanishi nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki butun jamiyatning ushbu printsiplarga hurmatini oshirishga xizmat qiladi. Bu maqsadda huquqiy ta'lim dasturlarini kengaytirish va OAVda tegishli targ'ibot ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Aybsizlik prezumtsiyasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida adolatli sudlovning poydevori hisoblanadi. O'rta asrlardagi huquqiy an'analardan tortib zamonaviy konstitutsiyaviy kafolatlargacha bo'lgan yo'lni bosib o'tib, ushbu printsiplarni bugungi kunda

gumon qilinuvchilar va sudlanuvchilar huquqlarining barcha sudlov bosqichlarida haqiqiy himoyasini ta'minlamoqda.

So'nggi yillardagi islohotlar, jumladan, revizion instansiyaning joriy etilishi, jimlik huquqining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi va himoya huquqlarining kengaytirilishi davlatning xalqaro standartlarga rioya etishga intilishini tasdiqlaydi. "Isbotlanmagan aybdorlik – isbotlangan aybsizlikdir" tamoyili ayblov organlarini dalillar bazasining sifatini doimiy ravishda oshirishga undaydi.

Biroq, aybsizlik prezumptsiyasining to'liq va samarali tatbiqi uchun yanada ko'p ishlar qilish zarur. Advokatura mustaqilligini kuchaytirish, sudgacha bosqichda protsessual huquqlarga rioya etilishi ustidan monitoring mexanizmlarini joriy etish, huquq-tartibot organlari xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish – bular aybsizlik prezumptsiyasini nazariy printsiptan amaliy kafolatga to'liq aylantirish uchun zarur qadamlardir.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat sudlov tizimining kelgusi rivojlanishi shaxs huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi, sud hokimiyatining mustaqilligi va xalqaro huquq standartlariga muvofiqlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Faqat shundagina aybsizlik prezumptsiyasi o'zining haqiqiy mohiyatiga – har bir insonning sha'ni va erkinligini himoya qilish vazifasiga – to'liq xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T. 2023. – Toshkent, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent, 2024.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr). BMT Bosh Assambleyasi.
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr). BMT Bosh Assambleyasi.
6. Тухташева У.А. Суд хатоларини бартароф этишнинг жиноят-процессуал йўллари. – Тошкент: ТДЮУ, 2017.
7. Хайриев Н.И. Суриштирув органлари фаолиятини модернизациялаш. Монография. – Тошкент, 2019.
8. Кучкаров Х.З. Жиноят процессида назорат тартибида иш юритишни такомиллаштириш масалалари // Давлат ва ҳуқуқ. – 2024. – №2. – Б. 45-52.
9. Saidov A.X. Xalqaro huquq va inson huquqlari. – Toshkent: Sharq, 2021.
10. Стецовский Й.И. Право на свободу и личную неприкосновенность. – Москва: Дело, 2000.
11. Ashworth A. Principles of Criminal Law. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
12. Trechsel S. Human Rights in Criminal Proceedings. – Oxford: Oxford University Press, 2005.